Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каямов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna

Farg'ona davlat texnika universiteti doktranti (DSc)

ORCID: 0000-0002-8596-2473

E-mail: sevarikabdullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash zarurligi asoslab berilgan. An'anaviy DuPont modeli va moliyaviy barqarorlikni baholash usullarining cheklanishlari ko'rsatilgani holda ishlab chiqarish jarayoni natijalarini aniqroq aks ettiradigan, yalpi foyda, ishlab chiqarish aktivlari rentabelligi, moliyaviy leveraj hamda ROIC/WACC nisbatiga tayanadigan takomillashtirilgan model taklif etilgan. Shuningdek, moliyaviy mustaqillik, joriy likvidlilik, ROE, ROA va qarz kapitali ulushiga asoslangan integral moliyaviy barqarorlik indeksi (I.M.B.) ishlab chiqilib, korxonalarni barqarorlik darajasi bo'yicha to'rt toifaga ajratish mezonlari shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy ko'rsatkichlar, DuPont modeli, ROE, ROA, ROIC, WACC, moliyaviy leveraj, integral moliyaviy barqarorlik indeksi.

Abstract. This article substantiates the necessity of assessing the economic stability of textile enterprises based on a system of financial indicators. The limitations of the traditional DuPont model and existing financial stability assessment methods are identified, as they do not fully reflect the efficiency of production activities. An improved model is proposed, based on gross profit, return on production assets, financial leverage, and the ROIC/WACC ratio. An integral financial stability index (IMB) is developed, incorporating the financial independence, current liquidity, return on equity (ROE), return on assets (ROA), and debt capital ratio. Based on this index, a methodology for classifying enterprises into four stability levels has been formulated.

Key words: economic stability, financial indicators, DuPont model, ROE, ROA, ROIC, WACC, financial leverage, integral financial stability index.

Аннотация. В статье обоснована необходимость оценки экономической устойчивости текстильных предприятий на основе системы финансовых показателей. Выявлены ограничения традиционной модели DuPont и существующих методов оценки финансовой устойчивости, поскольку они не в полной мере отражают эффективность производственной деятельности. Предложена усовершенствованная модель, основанная на показателях валовой прибыли, рентабельности производственных активов, финансового левериджа и соотношения ROIC/WACC. Разработан интегральный индекс финансовой устойчивости (ИМ.Б.), включающий коэффициенты финансовой независимости, текущей ликвидности, рентабельности собственного и совокупного капитала, а также доли заемных средств. На основе данного индекса сформирована методика дифференциации предприятий по четырем уровням устойчивости.

Ключевые слова: экономическая устойчивость, финансовые показатели, модель DuPont, ROE, ROA, ROIC, WACC, финансовый леверидж, интегральный индекс финансовой устойчивости.

KIRISH

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini baholash uslubiyoti turli moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni, shuningdek tashqi va ichki muhit omillarining ta'sirini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdir. Korxonaning holati to'g'risida to'liq va obyektiv tasavvurini shakllantirish uchun moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda alohida hisoblash zarur. Chunonchi, moliyaviy-



iqtisodiy ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ular xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining turli jabhalarini aks ettiradi. Xususan, moliyaviy barqarorlik korxonaning o'z moliyaviy majburiyatlarini bajara olishini, to'lov qobiliyatini va moliyalashtirishning tashqi manbalariga nisbatan mustaqilligini saqlab qolish qobiliyatini yoritishda, iqtisodiy barqarorlik nisbatan kengroq jihatlarni qamrab olgan holda korxonaning barcha resurslaridan samarali foydalanish, foydani barqarorlashtirish, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashni ifodalaydi. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga operatsion samaradorlik, mahsulot sifati, innovatsion faoliyat, xavf-xatarlarni nazorat qilish va boshqa shu kabi omillarni ham qamrab oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar M.S.Abrutyn va A.V.Grachev moliyaviy barqarorlikni moliyaviy muvozanat sifatida ifodalaydi. M.N.Kreynina esa korxonaning moliyaviy barqarorligini uning barqaror moliyaviy holati sifatida xarakterlaydi, N.A.Rusak ushbu tushunchaga korxonaning uzoq muddatli to'lovga qobiliq xususiyatini kiritgan, V.V.Bocharov korxonaning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni uning moliyaviy farovonligining hal qiluvchi mezonidir deb hisoblagan. Korxonaning moliyaviy barqarorligi tushunchasi asosida uning to'lovga va kredit olishga qobiliyatini, ya'ni moliyaviy jihatdan raqobatbardoshligini, kapitaldan va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni, davlatga va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan mavjud majburiyatlarni bajara olishi tushunilgan.

Korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashga oid muammolar hamda korxonalarning moliyaviy holatini baholash va boshqarishga oid masalalar E.Yu.Emelyanova, Yu.S. Fursina va V.I. Komogortsevalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Moliyaviy barqarorlik bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish uchun zaruriy nazariy va metodologik bazani yetakchi iqtisodchi olimlardan A.I. Kovalev, V.P. Privalov, M.I. Bakanov, R.S. Sayfulinning ilmiy-tadqiqot ishlari shakllantirgan.

Moliyaviy holat korxona qanday moliyaviy vositalardan foydalanishini va ishlab chiqarish jarayonida ular bilan qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini ifodalaydi. Ushbu ma'lumot korxona uchun o'z faoliyatini uzoq muddatli vaqt oralig'ida samarali amalga oshirish uchun zarurdir. Iqtisodchi olim Markaryan fikriga ko'ra, moliyaviy holat "Muayyan davrda korxona boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi majburiyatlarni qoplay olishga qodirmi?" degan savolga javobni yoritib beruvchi bir qator ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonaning moliyaviy faoliyati tarkibiga aktivlarni shakllantirish, ular harakati hamda ta'minoti kiradi. Moliyaviy holat – bu korxonaning barcha moliyaviy tizimining tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatidan olingan yakuniy natija yoki kapitalning doiraviy aylanishi, mulkni saqlash va ishlatishda nazoratni amalga oshirish jarayonida erishilgan natijadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Iqtisodiy barqarorlik" tushunchasiga shakllantirilgan ta'rifga ko'ra korxonaning iqtisodiy barqarorlik darajasini quyidagi bir-biriga o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimini ifodalovchi korxonaning faoliyat sohalarini tahlil qilishdan iborat bo'lgan uslubiyat asosida amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [2; 3]. Fikrimizcha, ushbu uslubiyat tarkibi mantiqiy izchillikda amalga oshiriladigan quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlashdan iborat bo'lishi lozimdir:

Korxona faoliyatining samaradorligini baholash. Korxona iqtisodiy tizimining faoliyati xom-ashyo va materiallarni qayta ishlash asosida jamiyat a'zolarining moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan mahsulotlar (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish jarayoni hisoblandi. Ushbu jarayon natijasi sanoat korxonalari doirasida ishlab chiqarish omillarini qayta ishlash asosida amalga oshiriladigan faoliyatning samaradorligi bilan tavsiflanadi. Resurslardan samarali foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektning maqsadlariga – natijalariga erishishning asosiy omillaridan biridir. Shu bois, korxonaning mavjud resurslardan qay darajada unumli foydalanayotganini baholash muhim ahamiyatga ega. Bunday baholash usullaridan biri sifatida Dyupon modeli qo'llaniladi. Ushbu model korxonaning iqtisodiy faoliyati samaradorligini aniqlashda rentabellikni chuqur tahlil qilish, daromadlilikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Dyuponning iqtisodiy samaradorlikni aniqlash formulasi ishlab chiqarish aktivlaridan samarali foydalanishni ko'rsatuvchi korxona aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichidan va ishchanlik faolligi koeffitsiyenti (aktivlar aylanuvchanligi)dan iborat bo'lib quyidagicha hisoblanadi:


 K_p

Bu yerda,

 R_a – aktivlar rentabelligi $K_{i.f.}$ – ishchanlik faolligi (tadbirkorlik faolligi) koeffitsiyenti

Amalda esa, mazkur formuladan foydalanishda bir qator metodologik muammolar yuzaga keladi. Jumladan, an'anaviy hisob-kitobda aktivlar rentabelligini aniqlash uchun foydani jami aktivlarga bo'linadi. Qo'llanilayotgan "foyda" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish jarayoni natijasida shakllangan foydani, balki investitsion yoki moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shunga ko'ra, hisoblangan ko'rsatkich korxonaning to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish samaradorligini to'liq aks ettirmaydi. To'qimachilik sanoati korxonalari uchun "foyda" ko'rsatkichini aniqlashtirish dolzarbdir. Chunki sohadagi korxonalarning iqtisodiy barqarorligi asosan ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligiga, ya'ni mavjud asosiy vositalardan foydalanish darajasi va ularning yaratib berayotgan qo'shilgan qiymatiga bog'liq. Shuningdek, investitsion va moliyaviy faoliyatdan olingan foydaning yuqori bo'lishi, samarali ishlab chiqarish jarayonlari natijasida shakllangan yalpi foydani sun'iy tarzda oshirib ko'rsatishi ham mumkin. Bu esa ishlab chiqarish korxonasi uchun ijobiy holat sifatida baholanmaydi, aksincha, uning asosiy faoliyat samaradorligini buzib ko'rsatish holati hisoblanadi. Shu sababli, Dyupon formulasini to'qimachilik sanoati korxonalarining joriy holatini e'tiborga olgan holda, aktivlar rentabelligini aniqlashda umumiy foyda hamda aktivlardan emas, balki ishlab chiqarish faoliyat natijasi hisoblangan yalpi foyda va ushbu jarayonda to'g'ridan-to'g'ri band bo'lgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatidan foydalanib hamda aktivlar aylanuvchanligini hisoblashda ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy vositalar qiymatini o'z mablag'lariga nisbatini hisoblagan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu asosda ko'rsatkich quyidagicha qayta ifodalanishi mumkin:

$$K_p = K_a^* \times K_{i.f.}^*$$

K_a^* – ishlab chiqarish aktivlari rentabelligi, ya'ni yalpi foydani ishlab chiqarish jarayonda to'g'ridan to'g'ri band bo'lgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati

$K_{i.f.}^*$ – aktivlar aylanuvchanligi, ya'ni ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy vositalar qiymatini o'z mablag'lariga nisbati.

Dyuponning an'anaviy modelida hisoblash tarkibida sof foyda asosiy ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Biroq amaliyotda sof foyda korxonaning umumiy faoliyatini ifodalaydi, ishlab chiqarish samaradorligini unga tayangan holda baholash esa noto'g'ri ma'lumotlarni shakllantirishi mumkin. Chunki moliyaviy va investitsion faoliyat natijalari ba'zan ushbu ko'rsatkichni sun'iy ravishda oshirishi, ba'zan esa pasaytirishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini tahlil qilishda xato xulosalarga olib keladi. Shu bois, biz tomonimizdan taklif etilgan takomillashtirilgan model faqat ishlab chiqarish jarayonining haqiqiy holatini aks ettirib, uning samaradorligiga xolis baho berish imkonini yaratadi.

Taklif etilayotgan ushbu yondashuv quyidagi ustunliklarga ega:

- korxonaning asosiy ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini xolis aks ettiradi;
- investitsion va moliyaviy faoliyatdan kelgan tasodifiy yoki bir martalik daromadlarni hisobdan chiqarib, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini aniq baholash imkoniyatini beradi;
- to'qimachilik sanoatiga xos bo'lgan kapital sig'imi yuqori va energiya sarfi katta bo'lgan texnologik jarayonlarning ta'sirini hisobga oladi.

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini baholashda moliyaviy tahlilining nazariyasi va amaliyotida Dyuponning uch omilli modeli ham keng qo'llaniladi. Ushbu model xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy barqarorligini korxonaning daromad darajasi (foyda me'yori), ishbiarmonlik faolligi koeffitsiyenti va moliyaviy leveraj kabi ko'rsatkichlarga bog'liqligini ifodalagan holda quyidagicha hisoblaydi:

$$ROE = ROS \times K_{o.a} \times Lr$$

Bu yerda,

ROE (return on equity) – korxona o'z kapitalidan foydalanish samaradorligi koeffitsiyenti;

ROS (return on sales) – sof foydani tushumga nisbatini ifodalovchi foyda me'yori ko'rsatkichi;

 $K_{o.a}$ – tushumni korxona aktivlariga nisbatini ifodalovchi ishbiarmonlik faolligi koeffitsiyenti;

Lr – kapital tarkibiy tuzilmasini tavsiflovchi hamda undan samarali foydalanish darajasini ko'rsatuvchi moliyaviy leveraj koeffitsiyenti.

Mazkur modelning afzalligi kapitaldan foydalanish samaradorligini aniq ifodalashda namoyon bo'lsa-da, u sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini, resurslardan unumli foydalanish darajasini hamda korxonaning uzoq muddatli rentabelli faoliyat yuritish salohiyatini to'liq aks ettirishda ma'lum cheklanishlarga ega. Fikrimizcha, korxonaning ishlab chiqarish va sotish samaradorligini baholashda an'anaviy ravishda qo'llanadigan sof foyda ko'rsatkichining o'rniga yalpi foyda ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki yalpi foyda to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish jarayonlarining natijasini aks ettiradi va moliyaviy hamda investitsion operatsiyalar ta'sirini minimallashtirgan holda korxonaning asosiy faoliyat samaradorligi haqida xolis ma'lumot beradi. Shu bilan bir qatorda, model tarkibiga investitsiya samaradorligini



ifodalovchi ROIC (Return on Invested Capital) ko'rsatkichini kiritish orqali korxonaning jalb etilgan kapitaldan foydalanish imkoniyatlari va qiymat yaratish salohiyati ham hisobga olish uchun shart-sharoit yaratiladi. Bu esa sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda faqat joriy foydalilik emas, balki uzoq muddatli investitsion istiqbollarni ham qamrab olish imkoniyatini shakllantiradi. Takomillashtirilgan model umumiy holda nafaqat kapitaldan foydalanish samaradorligini, balki sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlari holatini, investitsiyalarning qiymat yaratish imkoniyatlarini hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni kompleks va xolis ravishda baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

$$ROE^* = ROS^* \times K_{i.f.}^* \times Lr \times ROIC / WACC$$

Bu yerda,

ROS^* – korxona asosiy faoliyatining daromad darajasi (foyda me'yori, marjasi), ya'ni yalpi foydani tushumga nisbati asosida aniqlanadi;

$K_{i.f.}^*$ – tushumni korxonaning ishlab chiqarishda band bo'lgan aktivlariga nisbatini ko'rsatuvchi ishbilarmonlik faolligi koeffitsiyenti;

Lr – kapital tarkibiy tuzilmasini tavsiflovchi va moliyaviy leveraj darajasini aniqlovchi ko'rsatkich;

ROIC – investitsiya samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib quyidagicha hisoblanadi:

$$ROIC = \frac{EBIT (1 - \text{solliq stavkasi})}{\text{Investitsiyalangan kapital}}$$

WACC – kapitalni jalb qilish qiymati (investorlar yoki kreditorlar uchun kapitaldan olinishi kutilayotgan minimal daromad).

ROIC ko'rsatkichi xo'jalik yurituvchi subyektning investitsiya qilingan kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalasa, uni kapitalni jalb qilish qiymatini ifodalovchi ko'rsatkich (WACC)ga nisbati esa ushbu samaradorlik kapital qiymatini qoplay olishini yoki bunday imkoniyatga ega emasligini ifodalaydi:

1) agar $ROIC > WACC$ bo'lsa, korxona kapital qiymatiga nisbatan yuqori daromad keltirmoqda;

2) agar $ROIC < WACC$ bo'lsa, investitsiya natijasida olingan daromad kapital qiymatini qoplay olmaydi;

3) agar $ROIC = WACC$ bo'lsa, kapital qiymatini qoplash uchungina yetarli bo'lgan daromadga erishiladi.

Taklif etilayotgan model asosida korxonaning iqtisodiy barqarorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Bu mezonlar korxonaning barqarorligini nafaqat foyda, moliyaviy mustaqillik nuqtayi nazaridan, balki ishlab chiqarish va investitsion samaradorlikni ham e'tiborga olgan holda baholash imkonini beradi (1-jadval).


1-jadval. Korxona iqtisodiy barqarorligini takomillashtirgan model asosida baholash mezonlari¹

ROE* diapazoni (kattaliklari)	Baho	Izoh
> 15%	Ijobiy	Korxona barqaror foydaga, ishbilarmonlik faolligiga ega, investitsiyalar asosida daromadga erishilmoqda
8–15%	Maqbul	Korxona barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega, lekin modernizatsiya/investitsiya samaradorligini oshirish lozim
3–8%	Xavfli	Foyda me'yori past, ishbilarmonlik faolligi hamda investitsion samaradorlikka erishilmagan
<3%	Salbiy	Faoliyat samarasiz

Bu mezonlar korxonaning moliyaviy barqarorligini nafaqat joriy foyda va ishlab chiqarish vositalarining aylanuvchanlik darajasi nuqtayi nazaridan, balki investitsion kapitalning yangi qiymat yaratish qobiliyati jihatidan ham baholash imkoniyatini shakllantiradi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash. Iqtisodiy nuqtayi nazardan korxonaning moliyaviy barqarorligi uning to'lov qobiliyatiga, ya'ni kreditlar va kreditorlik qarzlari o'z vaqtida va to'liq to'lash qobiliyatiga, o'z moliyaviy mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasiga, moliyalashtirish manbalarining barqarorligiga bog'liq bo'lib, umumiy holda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy salohiyati quyidagi chizmada ifodalangan ko'rsatkichlar asosida baholanadi (1-rasm):

1 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-rasm. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar²

Korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho berishda ushbu ko'rsatkichlar buxgalteriya balansi, daromad va xarajatlar to'g'risidagi hisobotlardan foydalangan holda shakllantiriladi. Fikrimizcha, korxona o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va to'liq bajara olish qobiliyatini baholashda yanada ishonchli hamda kompleks axborot olish imkoniyatini beruvchi qo'yidagi indeksni ($I_{M.B.}$) qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

$$I_{M.B.} = w_1 \times K_M + w_2 \times K_{j.l.} + w_3 \times ROE + w_4 \times ROA + w_5 \times K_{M.L.}$$

Bu yerda,

K_M – moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti

$K_{j.l.}$ – korxonaning joriy likvidlilik koeffitsiyenti

ROE – o'z kapitalining rentabellik ko'rsatkichi

ROA – aktivlar rentabelligi

$K_{M.L.}$ – moliyaviy leveraj koeffitsiyenti

w_1, w_2, w_3, w_4, w_5 – koeffitsiyentlarning ahamiyatini (salmog'ini) ifodalovchi kattaliklar.

Taklif etilgan indeks asosida xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy barqarorligini baholash bir qator ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish bilan ushbu axborotdan foydalanuvchilarga korxonaning moliyaviy barqarorligi to'g'risida yanada aniq ma'lumotlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keltiradi. O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalari sharoitida taklif etilayotgan integral indeksning tarkibi va undagi ko'rsatkichlarning salmoqli koeffitsiyentlari quyida keltirilgan jadvalda havola etilgan. Bu ko'rsatkichlar ulushlari sohaning moliyaviy xususiyatlari, aylanma kapitalga yuqori talab, mavsumiylik va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimini hisobga olgan holda tanlangan. Shu bilan birga, har bir ko'rsatkich uchun aniqlangan mukammal, maqbul va xatarli intervallar mavjud iqtisodiy sharoitga mos holda tuzilgan bo'lib, ular korxonaning moliyaviy barqarorligini ishonchli baholash imkonini beradi. Ushbu intervallar orqali korxonalarning faoliyatini nafaqat moliyaviy natijalar nuqtayxi nazaridan, balki ularning xatar darajasi, investitsiyaviy jozibadorligi va moliyaviy shaffofligi jihatidan ham kompleks baholash mumkin bo'ladi. Shuning uchun mazkur jadvaldagi me'yoriy chegaralar korxonaning iqtisodiy holati to'g'risida aniq va xolis ma'lumotlarni shakllantirish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli barqaror rivojlanish istiqbollarini baholash uchun amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy barqarorlik indeksi tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlarning baholash mezonlari³

№	Ko'rsatkichlar	Salmoqli koeffitsiyent	Mukammal oraliq (%)	Maqbul oraliq (%)	Xatarli oraliq (%)
1	Moliyaviy mustaqillik	15%	50–70	30–50	<30
2	Joriy likvidlilik	15%	1.5–2.5	1.0–1.5	<1.0
3	ROE (Return on Equity)	30%	15–25	8–15	<8
4	ROA (Return on Assets)	30%	10–15	5–10	<5
5	Qarz kapitali/O'z kapitali (D/E ratio)	10%	0.5–1.0	1.0–1.5	> 1.5
Jami		100%			

² Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

³ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Har bir ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baholash oraliqlari shakllantirilgan bo'lib, moliyaviy barqarorlik indeksining umumiy baholash kattaliklari aynan yuqoridagi jadval ma'lumotlariga tayangan holda shakllantirildi (3-jadval).

3-jadval. Moliyaviy barqarorlik indeksining baholash mezonlari⁴

Indeks qiymati, koeffitsiyentda (IM.B.)	Baho	Tavsif
0.75 – 1.00	Yuqori barqarorlik	Korxona moliyaviy jihatdan barqaror bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari yuqori.
0.55 – 0.75	Maqbul barqarorlik	Iqtisodiy barqarorlik qoniqarli, lekin tashqi va ichki omillarning o'zgarishi natijasida iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayish xatari mavjud.
0.40 – 0.55	Xavfli holat	Korxonaning iqtisodiy barqarorligi xatarli holatda, ishlab chiqarish samaradorligi, faoliyatning daromadlilik darajasi past, mavjud resurslardan unumli foydalanilmagan, investitsiyaviy jozibadorlikka ega emas.
<0.40	Tanazzul holati	Korxona iqtisodiy barqarorlikka ega emas. Bankrotlik xavfi yuqori. Qayta moliyalashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini restrukturizatsiya qilish talab etiladi.

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini baholash uchun taklif etilgan indeks uning iqtisodiy holatini baholashda alohida ko'rsatkichlarga tayangan holda emas, balki ularning kompleks uyg'unligidan foydalangan holda tahlilni amalga oshiradi. Bunda moliyaviy mustaqillik, joriy likvidlilik, aktivlar rentabelligi, qarz kapitalidan foydalanish samaradorligi hamda aktivlarning aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlarning natijasi bir integral mezon asosida aks ettiriladi. Bu yondashuv asosida korxonaning joriy holatini faqat bir yoki ikki ko'rsatkich bilan emas, balki barcha muhim moliyaviy indikatorlarning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda baholash imkoniyati shakllantiriladi. Ushbu indeks asosida baholangan korxonalar barqarorlikning quyidagi oraliqlariga ajratiladi:

1. Yuqori barqarorlik (0,75 – 1,00). Ushbu baholash oralig'iga to'g'ri kelgan korxonalarning moliyaviy mustaqillik darajasi yuqori, likvidlilik va foydalilik ko'rsatkichlari maqbul deb belgilangan me'yorlarda bo'lib, ichki va tashqi omillarning salbiy ta'sirida o'z faoliyatini davom ettirish hamda rivojlantirish salohiyatiga ega. Shuningdek, ushbu holat korxonaning investitsion jozibadorligining yuqori ekanligini ifodalaydi. Korxonada moliyaviy shaffoflik ta'minlangani holda uzoq muddatli strategik rivojlanish istiqbollari ta'minlangan.

2. Maqbul barqarorlik (0,55 – 0,75). Baholash indeksining ushbu kattaliklariga to'g'ri keluvchi korxonalarning iqtisodiy holati umumiy holda qoniqarli bo'lib, ular zararsiz faoliyat yuritish hamda o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda qoplay olish imkoniyatlariga ega. Biroq ayrim ko'rsatkichlar mukammal intervaldan chetga chiqib, maqbul yoki pastki chegarada shakllanishi natijasida xatar elementlari yuzaga keladi. Xususan, joriy likvidlilikning 1.0–1.5 darajada bo'lishi qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati mavjudligini ko'rsatsa-da, bu holat yuqori darajadagi likvidlilik zaxirasi yo'qligini ham anglatadi. Shuningdek, ROE va ROA ko'rsatkichlari 8–15% va 5–10% oraliqda bo'lsa, bu korxonaning foydaliligi mavjudligini, biroq investorlar uchun yetarlicha jozibador emasligini bildiradi. Qarz/o'z kapital nisbatining 1.0–1.5 darajada shakllanishi esa moliyaviy leverajdan foydalanishda ma'lum xavf borligini ko'rsatadi. Umuman olganda, bu guruhdagi korxonalar iqtisodiy faoliyatni barqaror davom ettira oladi, ammo mavsumiylik, tashqi bozor o'zgarishlari va kredit yukiga oid xatarlarga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

3. Xatarli holat (0,40 – 0,55). Korxonalarni moliyaviy barqarorlik indeksi asosida baholash natijasida yuzaga kelgan ushbu natija iqtisodiy faoliyat xatarli holatda ekanligini ifodalaydi. Ushbu korxonalarda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti ilmiy – tadqiqot natijalariga ko'ra 30% dan yuqori bo'lsa-da moliyaviy resurslardan samarali foydalanmayotganligidan dalolat beradi, yoki 30 % dan bo'lib, korxona tashqi moliyalashtirish manbalariga to'liq bog'liq, qarz mablag'larini qoplash uchun yetarli kapitalga ega emas. Shuningdek, qarz kapitalining yuqori ulushga ega bo'lishi kreditorlar, tashqi sarmoyachilar uchun xavf omillarini kuchaytiradi. Bu esa korxonaning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday korxonalar qayta moliyalashtirish, faoliyatni to'liq modernizatsiya va restrukturizatsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

4. Tanazzul holati (<0,40). Moliyaviy barqarorlik deyarli yo'qotilgan korxonalarning baholash natijalari ushbu oraliqda bo'lib, ushbu korxonalarda sof foyda manfiy shakllangan, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 30 %dan past, qarz kapitalining ulushi yuqori bo'ladi. Bunday holatda korxonalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda qoplay olish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Bu esa korxonada

⁴ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



bankrotlik xavfini yuqori darajada ekanligini ifodalaydi. Bunday holatda korxonalarda qayta moliyalashtirish, aktivlarni restrukturizatsiya qilish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur. Agar bu choralar ko'rilmasa, bankrotlik jarayoni boshlanishi ehtimoli juda yuqori bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy barqarorligini taklif etilayotgan moliyaviy barqarorlik indeksi asosida baholash umumiy tarzda quyidagi afzalliklarga ega:

- korxonalar faoliyatini to'liq tahlil qilish asosida ularni to'rt toifaga ajratish, faoliyatning drayver yoki zaif nuqtalarini aniqlash imkoniyatining shakllanishi;
- moliyaviy tashkilotlar, mahalliy va tashqi sarmoyadorlar, davlat nazorat organlari uchun ishonchli baholash mezonini sifatida xizmat qilishi;
- korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda subyektiv yondashuvdan voz kechgan holda obyektiv, aniq hisob-kitoblarga asoslangan baholash uslubiyatining shakllanishi;
- uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rivojlanish rejalarini shakllantirish, istiqboldagi yo'nalishlarni belgilash uchun ilmiy asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun asos vazifasini bajarishi.

Korxona barqaror moliyaviy holatini saqlab qolish va uni yuqori darajaga ko'tarishi uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

- mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;
- aylanma kapital aylanuvchanligini oshirish;
- foydalilikni ta'minlaydigan ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish;
- investitsiyaviy faollik va bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, kelgusida korxonaning moliyaviy barqarorligi pasayishi va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish istiqbollari cheklanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva, S (2025) "Tarmoqlararo integratsiyani takomillashtirish asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: ishlab chiqarish va bank sektorining o'zaro hamkorligi". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 5, Oct. 2025, pp. 327-36, <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss5-pp327-336>
2. Abdullayeva, S (2025) "To'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni tashkil etuvchi resurslar tarkibi". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 1, Feb. 2025, pp. 273-81, <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp273-281>.
3. Abdullayeva, S. (2025) "Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari". Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, vol. 3, no. 9, Sept. 2025, pp. 347-53, <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss9-pp347-353>.
4. Abdullayeva, S. (2025) "To'qimachilik mahsulotlarining bozor kon'yunkturasi tahlili". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 3, July 2025, pp. 985-90, <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp985-990>.
5. Абрютин, Марина Сергеевна. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия [Текст] : Учеб.-практ. пособие / Абрютин М. С., Грачев А. В.. — Москва: Дело и сервис, 1998. — 255 с.: 22 см.; ISBN 5-8018-0037-9.
6. Емельянова Е.Ю., Агрегирование предпочтений на основе точного решения задачи о ранжировании Кемени. дис. ... кандидат наук. Томск – 2022.
7. Леонтьев, В. Е. Финансирование и кредитование предприятий: учебник для вузов / В. Е. Леонтьев, В. В. Бочаров, Н. П. Радковская. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 183 с. — (Высшее образование). 4-е изд., пер. и доп. Учебник для вузов
8. Ковалев А.И., Привалов В.П. Анализ финансового состояния предприятия - 4. изд., испр. и доп. - Москва: Центр экономики и маркетинга, 2000. - 204 с.: ил., табл.; 21 см. - (Библиотека хозяйственного руководителя; Кн. 5 (37)).; ISBN 5-85873-046-9
9. Khasanovna, A. S. (2025). Efficient Use of The Company's Workforce as A Key Factor in Ensuring Economic Sustainability. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(4), 1557-1570. DOI: <https://cajitm.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/1033>.
10. Кравченко Л.И., Осмоловский В.В., Русак Н.А. [и др.]. Теория анализа хозяйственной деятельности: Учебник для экономических специальностей вузов. Минск: Новое знание, 2001.
11. Фурсина Ю. С., Комогорцев В. И., Соколова Е. Л. Определение понятия финансовой устойчивости для предприятий розничной торговли // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. 2012. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-ponyatiya-finansovoy-ustoychivosti-dlya-predpriyatiy-roznichnoy-torgovli>
12. Шеремет, А.Д. Методика финансового анализа: А.Д. Шеремет, Р.С. Сайфулин. - М.: ИНФРА-М, 2015.
13. Шеремет А. Д., Сайфулин Р. С. Методика финансового анализа / Шеремет А. Д., Сайфулин Р. С. - Москва: ИНФРА-М, 1996. - 172 с.: граф.; 20 см.; ISBN 5-86225-131-6



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>